



**Илмий – амалий конференция
материаллари**

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

ISHQ VASL ILA BOQIY

O'zbek filologiya fakulteti magistranti: Shodmonova D.

Ilmiy rahbar: dots., Qahhorova Sh.

Layli va Majnun sevgisi Sharqning shuhratli afsonalaridan biri. Qadimda ko'chmanchi arab qabilalari orasida paydo bo'lgan ushbu mahzun qissa asosida forsiy va turkiy tillarda o'nlab ajoyib doston yaratildi. Jumladan, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy bezavol "Xamsa"sining uchinchi dostoni ham "Layli va Majnun" deb nomlanadi.

Layli va Majnun jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g'amgin qissalardan biridir. Bu qissani „Romeo va Julyetta“ bilan qiyos qilar ekan mashhur arabshunos, akademik I.Y.Krachkovskiy, jumladan, bunday degan edi: „G'arb sujeti Shekspir tomonidan abadiylashtirilgan „Romeo va Julyetta“ qissasidan ko'ra alamliroq qissa yo'q.

Sharq, albatta, Romeo va Julyettani bilmagan va ular bilan faqat XIX asrdagina tanishgan edi, ammo uning uzoq asrlar davomida yashab kelayotgan o'z g'amgin qissasi Layli va Majnun qissasi bor... Bu qissa o'nlab ulug' shoirlarni romantik dostonlar yaratishga ilhomlantirdi va u hozirgi kunga qadar Yaqin Sharqning turli xalqlari shoirlarining ham, dramaturglarining ham, musiqashunoslarining ham ijodida o'z aksini topib kelmoqda. G'arbdagi Romeo va Julettaning shuhrati bilan qiyos etganda, sharqda Majnun va Layli yanada mashhurroqdir ...”⁶

Ammo shuni aytib o'tish joizki, Romeo va Julyetta sevgisi bilan Layli va Majnun sevgisi o'rtasida juda katta farq bor. Bularning farqini aytish uchun Navoiy ishq va uning xususiyatlari, oshiqlik odobi va iltiroblari, “majoziy” va “haqiqiy” ishqning ma'no mohiyati nimalardan iborat ekanligini o'zining “Mahbub ul-qulub” asarida tushuntiradi. Unda Navoiy ishqning “marotib”lari borligini aytib, uning uch turini qayd etadi: avom ishq (nafsoniy ishq), xavoss ishq (xos kishilar ishq) va siddiqlar ishq (ilohiy ishq). Bu o'rinda Navoiyning “ishq marotibdur” degan so'ziga diqqat qilishimiz lozim, zero, “marotib” (martabalar) so'zi tariqat ahlining istilohlaridan bo'lib, u solikning ruhiy-ma'naviy taraqqiyot darajasini belgilaydi.

Demak, ishq –insoniy kamolot darajasini ko'rsatuvchi fazilat. Bundan tashqari, avom va xavoss tushunchalari ham tariqatga bog'lanadi. "Avom" deganda Navoiy savodsiz, oddiy xalqni nazarda tutmagan, balki umuman, ilohiyot tajalliyotini qalban his etolmagan, borliqqa zohiran munosabatlari bo'lib, jamiyatning rasm-u odatlarini bajarishdan nariga o'tolmaydigan kishilarni nazarda tutadi. Bunday kishilar qatoriga bilimdon muftiylar - mullalar-u ilmi botindan bexabar shayx-u zohidlar ham kirgan. Shu kabi, "xos kishilar" - aslzodalar tabaqasi, shoh-amrlar emas. Navoiy mazkur istilohni ko'ngil amriga amal qilib, Tangri yo'lida zahmat chekuvchi, dili va tili Haq yodidan bo'shamaydigan chin so'fiylarga nisbatan qo'llangan. Bu insonlarning ko'ngil ko'zgusi dunyoviy hirs-u havas g'uboridan tozalangani sababli "pok ko'zni pok nazar bilan pok yuzga" solib, "pok mazhar", ya'ni ilohiy jamol aks etgan alohida odamlarni sevish "vositasi bila..." mahbubi haqiqiy (ya'ni Xudo) jamolidan bahra olmoqqa musharrafdir. ⁷

Navoiyning ushbu so'zlaridan bu ikki ishq qissasining farqini bemalol anglab olishimiz mumkin. Bunda Layli va Majnunning sevgisi Navoiy sanab o'tgan turlarning uchinchisiga, ya'ni ilohiy ishqqa mansub. Romeo va Julyettaning sevgisini bu turga kiritishimiz mumkin emas, zeroki g'arbda "ilohiy ishq" degan tushunchaning o'zi mavjud emas edi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bu ikki sevgi qissasining quyidagi farqlarini ko'rsatish mumkin:

1. Layli va Majnunning pok muhabbati har qanday jismoniy lazzatga intilishdan xoli. Romeo va Julettaga nisbatan bunday deya olmaymiz.

2. Layli va Majnunning ishqini faqat "ahli suluk" - komil insonlarga xosdir. G'arbda esa "ahli suluk" tushunchasining o'zi mavjud emas.

3. Majnun Laylini bunchalik sevishiga sabab Laylining yuzida Iloh jamolining zuhr etishi ("mazhar")dir. Ahli suluk esa ana shunday kishilarni sevishi mumkin.

4. Romeo va Julyettaning ishqini nafsoniy ishq ("avom ishq") qa kiradi va shundayligicha yakun topadi. Layli va Majnunning sidq-u dardi oshishi, sevgisining alangalashishi orqali

haqiqiy ishqdan bahra oladilar. Shunday ishqning adabiyotda tasvirlanishini Navoiy “haqiqat asrorini majoz tariqi bila kuylash”, deb ta’riflaydi. “Layli va Majnun” dostonining mohiyatini ham ana shu “majoziy ishq”ning taraqqiy etib, “haqiqiy ishq”ga aylanishini obrazlar orqali ko’rsatib berish tashkil etadi. Bunda Majnun – Haq jazbasi tekkan, Haq jamolini kuchli shavq bilan sog’ingan solik timsoli bo’lsa, Layli ilohiy tajalliyot nuri porlagan o’sha “mazhar”dir.

5. Romeoning sevgisi Julyetteni ko’rgandan so’nggina paydo bo’lgan. Majnunda esa Laylini ko’rgandan so’ng “kimyolanish” (ilohiyotda intilish) boshlanadi, ammo ishq o’ti unga ancha ilgari, u dunyoga kelgandayoq tekkan edi.

6. Bu ikki asarning yana bir eng asosiy farqi shundaki, Romeo va Julyettaning o’limi ularni visoldan bebahra etadi. Ammo Layli va Majnunning o’limi esa ularni abadiy visolga yetkazadi.

Xullas, ishq qissasi shu tarzda poyoniga yetkaziladi. Umr bo’yi bir-birining vaslida, ishqida kuygan, bu dunyoda bir-birining diydoriga to’yolmaganlar Ruhi mutlaq sari ravona bo’lib, yerdagina - tuproq ostidagina orom topdilar. Navoiyning fikricha, har bir odam oshiqlik yo’lini tutib ishq tariqiga kirib, o’zini o’limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak. Bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu, demoqchi shoir. Ruhi mutlaqni tasavvur etishda inson aqli va ongi ojiz ekan, shoir uni Layli timsolida yaratdi. Buni esa shunday ustalik bilan obrazga singdira olganki, dunyoviy mashuqa bilan ilohiy mashuqa o’rtasida farq qolmagan.

Адабиётлар:

6. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейле в арабской литературе, Сб. „Алишер Навоийъ“, изд. М.-Л., 1946, стр. 31
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 1 Alisher Navoiy. O’zbekiston MAA G’afur G’ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. T-2011. 9-jild. 498–bet

41	<i>Тўраева А.</i>	Инвазион касалликлар вакили - қичима кўтир кана	118
42	<i>Турсунова Л. Давронов Б.</i>	Малакология фанининг Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда ривожланиш тарихи	120
43	<i>Ниёзова О.</i>	“Девону луғотит турк” асарида феъл майлларининг хусусиятлари	125
44	<i>То‘раева I.</i>	Abdulla Orifov she‘riyatida badiiy vosita-larning uyg‘unligi	129
45	<i>Жўраева О.</i>	Пиримкул Қодировнинг бадиалари ва ҳиссий бадий тафаккур	132
46	<i>Пирназарова С. Юлдошева Н.</i>	Пешлавҳалар — миллий маънавиятимиз кўзгуси	136
47	<i>Shodmonova D. Qahhorova Sh.</i>	Ishq vasl ila boqiy	139
48	<i>Chariyeva Sh.</i>	Qo‘sh ismli temuriylar	142
49	<i>Islomova Sh.</i>	Iboralarning yosh jihatidan xoslanishi	145
50	<i>Тоғжиева Г.</i>	Миллий гоа атов бирликларининг тарихий-этимологик хусусиятлари	146
51	<i>Нафасова В.</i>	Равиш паронимлар	150
52	<i>Нуриддинов Ш.</i>	Хувайдо лирикаси бадииятига доир	152
53	<i>Хусанов Ж.</i>	“Муҳаббатнома” ва номачилик таракқиёти	155
54	<i>Намрайева М.</i>	“Portfolio” tushunchasi va interfaol metodlar	160
55	<i>Холов Л., Эгамов З.</i>	Глобаллашув жараёнида ёшлар сиёсати ҳамда таълим-тарбиянинг ўрни	163
56	<i>Жабборов Э.</i>	Ирода инсон маънавиятнинг таркибий қисми сифатида	169
57	<i>Худойбердиев Д.</i>	Ўзбекистонда замонавий “Оммавий маданият”нинг тарқалиш сабаблари	170
58	<i>Sunatov D.</i>	Farosat ilmining falsafiy talqini	176
59	<i>Раҳмонқулова О.</i>	Қашқадарё воҳасида халқ амалий санъати: ҳолати ва ривожланиши	179